

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 657.5:336.1(575.1)

ABDURAXMANOV RAMAZAN ABDULLAYEVICH

**BUDJET TASHKIOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI
NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08-«Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Dostor of Philosorhy) ilmiy
darajasini olish uchun tayyorlangan**

DISSERTASIYA

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari
nomzodi, dosent F.T.Abduvaxidov**

Toshkent shahri – 2024 yil

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI NAZORAT TIZIMINING NAZARIY HAMDA USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1-§. Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari faoliyatining ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari.....	12
1.2-§. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining nazariy asoslari.....	21
1.3-§. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining uslubiy asoslari..... Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	33 43
II BOB AVTOMOBIL YO‘LLARI TIZIMIDAGI TASHKILOTLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI NAZORAT TIZIMINING AMALDAGI HOLATI.....	44
2.1-§. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish amaliyoti.....	44
2.2-§. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritish va ichki nazorat tizimini amalga oshirish.....	52
2.3-§. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarni tuzish va ularning tahlili..... Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	68 80
III BOB AVTOMOBIL YO‘LLARI TIZIMIDAGI TASHKILOTLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	82
3.1-§. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari.....	82
3.2-§. Avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda ichki nazorat tizimini takomillashtirish yo‘llari..... Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	87 94
XULOSA.....	97
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	100
ILOVALAR.....	109

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida davlat sektori buxgalteriya hisobi tizimi budget mablag'larining maqsadli va manzilli sarflanishi bo'yicha hisobdorlikni hamda ularga oid axborotlarning ochiqligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC) tomonidan e'lon qilingan "Davlat sektorida moliyaviy hisobdorlik indeksi 2021 yil hisobotiga ko'ra, dunyo miqyosida buxgalteriya hisobining hisoblash usulini joriy qilgan davlatlarning 57 foizi Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IPSAS) dan foydalanmoqda»¹. Budget tizimida mablag'larni taqsimlash, ijrosini amalga oshirish va nazorati uzlucksizligini ta'minlashda davlat sektori buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining rolini kengaytirish yuzasidan hukumatlar uchun tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Jahonda davlat sektori tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va ichki nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlat sektori tashkilotlarining moliyalashtirish manbalarini samarali tashkil etish, daromadlarini to'g'ri shakllantirish, shakllantirilgan daromadlarni maqsadli sarflash, tuzib taqdim etilayotgan hisobotlarning axborotlari ochiqligini ta'minlash va hisobdorlikni oshirish, davlat sektori tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish, avtomobil yo'llari tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish bilan bog'liq muammolar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil etish tartibini Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga moslashtirish orqali mablag'lar sarfiga oid hisobdorlik va ochiqlikni ta'minlash yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot ob'ekti hisoblangan avtomobil yo'llari tizimida "2024 yilda avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlarini qurish

¹ International Public Sector Financial Accountability Index 2021 Status Report. <https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/main-challenges-public-sector-accounting-reforms-and-world-bank-s-public-sector-accounting-and>

hamda rekonstruktsiya qilish, mukammal va joriy ta'mirlash, saqlash, ko'kalamzorlashtirish, tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish, qo'mita va uning tuzilmasdagi tashkilotlarni saqlash maqsadida jami 5484823,6 mln. so'm² mablag' yo'naltirilishi belgilangan. Ushbu mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishi, ular bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan nazorat va hisobodorlik bevosita avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini va ichki nazorat tizimini tashkil qilish zaruriyatini belgilab beradi hamda mazkur jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi. Xususan, tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishning amaldagi holatini baholash, mavjud ichki nazorat tizimining amal qilish holatini o'rghanish, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid mauammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish vazifalarini vujudga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagagi PF-4954-son "Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4545-son "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-330-son "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 14-fevraldagagi PQ-2776-son "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari va mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darajasi. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tadqiq qilish bo'yicha xorijiy iqtisodchi olimlar

² <https://lex.uz/en/docs/6707765#6710514>

tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalar va maqolalarda ham o'z aksini topgan. Xususan, ular qatoriga V.Bashkatov, Jorge de Jesus, JSB Eirado, Jens Heiling, O.Krasnoperova, Yu.Kutyliev, T.Maslova, O.Mitina, V.Pokusaev, T.Poleshuk, M.Ryabova, Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab, Tang Tri Hung, Nguyen Huu Thien, Nguyen Hieu Trung, Le Thuy Dung larning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan³.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan N.Abdusalomova, A.Bakaybayeva, R.Do'smuratov, A.Ibragimov, K.Ibragimov, S.Mehmonov, E.Odilov, A.Ostonokulov, M.Ostonaqulov, B.Sugirbayev, B.Xasanov, Sh.G'aniyev, Z.Xamidovalar tomonidan budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish hamda ichki auditning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirish muammolari o'r ganilgan⁴.

³ Башкатов В. В., Покусаев В. Ю. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях. Журнал "Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения". Выпуск № 13 / 2014. 320 с.; MA Jorge de Jesus, JSB Eirado. Relevance of accounting information to public sector accountability: A study of Brazilian federal public universities. TÉKHNE - Review of Applied Management Studies. 2012.; Jens Heiling (2020) Contributing to The Global Economy. Public Sector Accounting - A Discipline in Its Own Right. ERNST & YOUNG GMBH, Stuttgart, Germany. September 29, 2020.; Кондрakov Н.П. и др. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. -М.: Проспект, 2006.; Красноперова О. Бюджетный учет – М.: "ГроссМедиа Ферлаг", 2008.; Кутырев Ю.А. Совершенствование контроля в бюджетной сфере в условиях принятия Федеральных стандартов внутреннего финансового аудита. Вестник Евразийской науки. 2020, №6, Том 12; Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. Учебное пособие. 2020 г. 138 стр.; Полещук Т.А., Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. –М.: "ИНФРА-М", 2017. 227 с.; Рябова М.А. и друг. Бюджетный учет и отчетность : учебное пособие / - Ульяновск : УлГТУ. 2010.; Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A Survey on the Impact of Accounting Information System on Tasks Efficiency: Evidence from Malaysian Public Sector Agencies. International Review of Management and Marketing. ISSN: 2146-4405. 2017, 7(1), 183-190.; Tang Tri Hung, Nguyen Huu Thien, Nguyen Hieu Trung, Le Thuy Dung. Relationship between accountinginformation system and internalcontrol system. TAÏP CHÍ COÂNG THÖÔNG. Thâùng 8/2017.

⁴ Абдусаломова Н.Б. Ички назорат методологиясини такомиллаштириш. Монография. –Т.: «ТДИУ», 2023, 384 б.; Бакайбаева А.С. Ўзбекистон Республикасида бюджет ҳисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш йўллари. иқт. фан. фал. док. дис. автореферати. –Т.: 2020. – 52 б.; Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003. – 612 б.; Ибрагимов А., Сугирбаев Б. «Бюджет назорати ва аудити». –Т.: infoCOM.uz МЧЖ, 2010; Ибрагимов К. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботни такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2018. -56 б.; Ҳамдамов Б. ва бошқалар Бюджет назорати. Ўкув қўлланма.-Т.: «Iqtisod moliya»., 2018. 324 б.; Мехмонов С. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби: назария ва амалиёт. – Т.:«Iqtisod va moliya». 2016.-136 б.; Остонокулов А. «Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисоби ва ҳисоботи методологиясини такомиллаштириш» монография. Т: ВНЕШИНVESTПРОМ нашриёти, 2021, 208 бет.; Остонакулов М. «Бюджет ташкилотларида янги бухгалтерия ҳисоби». -Т.: Янги аср авлоди, 2011; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш масалалари: иқт. фан. док. дис. автореферати. –Т.: Ўз.Р.БМА. 2004. – 42 б.; Фаниев Ш. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва молиявий назоратни такомиллаштириш (таълим тизими мисолида). Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2008.; Хамирова З.У. Бюджет ташкилотларида ички аудит ва молиявий назорат хизматлари фаолиятини самарали ташкил қилиш масалалари. Монография. – Т.: «VNESHINVESTPROM» 2021. 183 б.

Ta'kidlash zarurki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan avtomobil yo'llari tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy muammolari alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. Shu bilan birga, avtomobil yo'llari tizimini moliyalashtirish manbalarini isloh qilish bilan bog'liq amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitiga muvofiq o'zgarib borishi mazkur sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliv ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtomobil yo'llari tizim tashkilotlari faoliyatining ahamiyati va asosiy yo'nalishlari hamda tizimdagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining zarurligini nazariy jihatdan asoslash;

budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining huquqiy asoslarini yoritish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish amaliyotini o'rganish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi holatini tadqiq qilish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda ichki nazorat tizimining amaldagi holatini o'rganish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini o'rganish hamda ularning tahvilini amalga oshirish;

avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tizimidagi budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisoboti olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid iqtisodiy munosabatlar majmui olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada abstrakt mantiqiy fikrplash, taqqoslash, kuzatish va tahlil qilish, induktsiya va deduktsiya, analiz va sintez, monografik tadqiqot, tizimli yondashuv, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobtlarni tuzish qoidalarini umumlashtirgan namunaviy hisob siyosati hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob ob'ektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga ko'ra takomillashtirilgan;

“Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to'g'risidagi nizom”ni ishlab chiqish asosida aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamli va samarali foydalanish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda ob'ektivligini ta'minlash asoslangan;

budget tashkilotlari hisob siyosatida xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari bo'yicha moliya yili oxiriga bo'lgan qoldiqlarni aniqlash uchun belgilangan kun me'yorlarini 15 kunga uzaytirish orqali «Xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari» xarajatlar moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirish taklifi asoslangan;

budget mablag'lari hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarini 161400/1 (063/1) - “Budget mablag'lari hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari” hamda budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarini 161400/2 (063/2) - “Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari” ishchi schyotlarida hisobga olish orqali moliyalashtirish manbalari bo'yicha xo'jalik

va kantselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

moliya yili davomida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarining moliya yili davomida foydalanilmay qolgan rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yiliga oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun o'tkazish mablag'lardan smetalar doirasida foydalanishlarini ta'minlashga xizmat qilgan;

shakllantirilgan namunaviy hisob siyosatini qo'llash qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomalariga qat'iy amal qilishi, inventarizatsiya o'tkazishning tartibi va muddatlarini aniq belgilash, sintetik va analitik schyotlar tarkibini tasdiqlash orqali ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonini soddalashtirish, hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob ob'ektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga xizmat qilgan;

qo'mita va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to'g'risidagi namunaviy nizom tarkibiy bo'linmalar tomonidan aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamli va samarali foydalanish, amaldagi qonunlar hamda ichki hujjatlar talablariga rioya qilish, belgilangan rejalarни bajarish, buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv axborotining to'liqligi hamda to'g'rilingini ta'minlash, tavakkalchiliklar yuzaga kelganda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda ob'ektivligini ta'minlash imkoniyatini bergen;

budget va budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarini alohida ishchi buxgalteriya schyotlarida hisobga olish qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish imkoniyatini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umumiyligi tan olinganligi hamda maqsadga muvofiqligi,

normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanilganligi, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatiga oid ma'lumotlarning rasmiy moliyaviy hisobotlardan olinganligi, xulosa, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning normativ-huquqiy hujjatlar hamda budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish uchun joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirishda nazariy-metodologik manbaa sifatida, «Budget hisobi» hamda «Budget nazorati» fan dasturlarini ilmiy va nazariy jihatdan takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish, shuningdek, tizim tashkilotlariga tegishli normativ-xuquqiy hujjatlar loyihalari, dasturlar, chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda hamda ularni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini umumlashtirgan namunaviy hisob siyosati hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob ob'ektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga ko'ra takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 02-1697-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida buxgalteriya xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomalariga qat'iy amal qilishi, inventarizatsiya o'tkazishning tartibi va muddatlarini aniq belgilash,

sintetik va analitik schyotlar tarkibini tasdiqlash orqali ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonini soddalashtirish, hujjatlar aylanish grafigini tasdiqlash asosida ichki nazorat va hisobdorlikni ta'minlash, hisob ob'ektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bir xil yondashuv asosida foydalanishga xizmat qilgan;

“Avtomobil yo'llari qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalari ichki nazorat tizimi to'g'risidagi nizom”ni ishlab chiqish asosida aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamli va samarali foydalanish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda ob'ektivligini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amaliyatga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 02-1697-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida tarkibiy bo'linmalar tomonidan aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamli va samarali foydalanish, amaldagi qonunlar hamda ichki hujjatlar talablariga rioya qilish, belgilangan rejalarini bajarish, buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv axborotining to'liqligi hamda to'g'rilibini ta'minlash, tavakkalchiliklar yuzaga kelganda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish, xarajatlar va ularning smetalarga mosligi hamda ob'ektivligini ta'minlash imkonini bergan;

udget tashkilotlari hisob siyosatida xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari bo'yicha moliya yili oxiriga bo'lgan qoldiqlarni aniqlash uchun belgilangan kun me'yorlarini 15 kunga uzaytirish orqali «Xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari» xarajatlar moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amaliyatga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 21-maydagi 02-1697-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida budget va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha «Xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari» xarajatlar

moddasi summasini asoslangan holda rejalashtirish va maqsadli moliyalashtirishga xizmat qilgan;

budget mablag'lari hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarini 161400/1 (063/1) - "Budget mablag'lari hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari" hamda budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarini 161400/2 (063/2) - "Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan kirim qilingan xo'jalik va kantselyariya mahsulotlari" ishchi schyotlarida hisobga olish orqali moliyalashtirish manbalari bo'yicha xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan amaliyatga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 21-maydag'i 02-1697-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi natijasida qo'mita va uning hududiy boshqarmalarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha xo'jalik va kantselyariya mahsulotlarining harakatiga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish imkonini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 1 ta xalqaro, 2 ta mahalliy maqola, 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokama qilingan va ijobjiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shundan, 2 ta mahalliy, 1 ta nufuzli xorijiy jurnalda ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

I BOB. BYUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI NAZORAT TIZIMINING NAZARIY HAMDA USLUBIY ASOSLARI

1.1-§. Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari faoliyatining ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 2- oktyabrdagi O‘RQ-117-son “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldaggi PF-4954-soni “Yo‘l xo‘jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4545-soni “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-330-soni “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 14-fevraldaggi PQ-2776-soni “O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni hamda O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 924-soni hamda 2020- yil 19-maydagi 295-soni “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarorlari asosida faoliyat yuritadi.

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-330-soni Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 12-ton ilovasi bilan tasdiqlangan. Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalarining tashkiliy—huquqiy shakli muassasa hisoblanib, amalga oshirilayotgan faoliyat turi davlat hokimiyyati va boshqaruvining respublika hamda hududiy idoralari faoliyati hisoblanadi.

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi muassasa hisoblanadi.

Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalarining moliyaviy ta’minoti manbalari quyidagilardan iborat:

- Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar;

- Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasidan ajratiladigan mablag‘lar;

- Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lar;

- Homiylik va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar.

Qo‘mita va uning hududiy boshqarmalari faoliyati yuzasidan xarajatlar o‘rnatilgan tartibda mablag‘lar turlari bo‘yicha budget mablag‘lari xarajatlar smetasiga o‘xshash tartibda rejalashtiriladi hamda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Qo‘mitaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnika siyosatini olib borish;

- avtomobil yo‘llarini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- avtomobil yo‘llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarini belgilash;

- avtomobil yo‘llarining xalqaro tranzit yo‘lklarini shakllantirish;

- zamonaviy transport oqimi sharoitlarida avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning manfaatlarini hisobga olib, avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish, loyihalashtirish, qurish, ta’mirlash va ulardan foydalanish masalalari kompleks hal etilishini ta’minlash hamda buyurtmachi xizmatining samarali faoliyatini tashkil etish;

- avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash sifati ustidan nazoratni amalga oshirish;

- xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarining, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko‘chalarining mavjud tarmog‘i saqlanishini ta’minlash ishlarini muvofiqlashtirish, ularning yuqori transport-foydalanish darajasida bo‘lishini ta’minlash;

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash sohasida innovation texnologiyalar va zamonaviy standartlarni joriy etish;

avtomobil yo‘llari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni, shu jumladan chet ellarda o‘quv-amaliyot kurslari va seminarlar tashkil etish.

Bevosita ushbu funksiyalar bilan bog‘liqlikda qo‘mita “quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnika siyosatini olib borish sohasida:

yo‘l xo‘jaligi sohasidagi zamonaviy texnologiyalarni va etakchi xorijiy mamlakatlarning tajribasini hisobga olgan holda avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash sohasida texnik jihatdan tartibga solish borasidagi normativ hujjatlarni takomillashtirishga doir takliflar kiritish va takomillashtirishda ishtirok etish;

avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash, shuningdek yo‘l-qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalarni ishlab chiqish borasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini ta’minlash;

avtomobil yo‘llari qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlashda uchastkalarda harakat xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish;

yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida avtotransport vositalari harakatini vaqtincha cheklash yoki to‘xtatishni joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish;

safarbarlik tayyorgarligini, shuningdek idoraviy mansub tashkilotlarning safarbarlik tayyorgarligi bo‘yicha ular faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish;

umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo‘llari davlat kadastrini yuritish;

avtomobil yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarining hisobini yuritish, umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bundan mustasno;

b) avtomobil yo‘llarini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

avtomobil yo‘llari va sun’iy inshootlarning texnik holatini har yili ko‘zdan kechirish, tekshirish;

avtomobil yo‘llarining texnik holatiga qarab avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlashning har yilgi dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish;

xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko‘chalarini ta’mirlashning har yilgi dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

v) avtomobil yo‘llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarini belgilash sohasida:

O‘zbekiston Respublikasining avtomobil yo‘llari ro‘yxatini shakllantirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish va ularni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

iqtisodiyot va aholining ehtiyojlaridan hamda davlatning strategik vazifalarini hal etishdan kelib chiqib respublika avtomobil yo‘llari tarmog‘ini ilmiy asoslangan istiqbolli rejallashtirish, takomillashtirish va rivojlantirish;

mamlakat mintaqalarini bog‘lovchi va kecha-kunduz, uzlusiz va xavfsiz avtomobil transport aloqasini ta’minlaydigan transport kommunikasiyalarini rivojlantirish;

respublika avtomobil yo‘llari tarmog‘ini takomillashtirish va rivojlantirish;

g) avtomobil yo‘llarining xalqaro tranzit yo‘laklarini shakllantirish sohasida:

avtomobil yo‘llari masalalari bo‘yicha xalqaro yo‘l va transport tashkilotlari bilan belgilangan tartibda o‘zaro hamkorlik qilish va ularda O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini ifodalash, O‘zbekiston Respublikasining avtomobil yo‘llari va transport sohasida xalqaro shartnomalarda ishtirok etishini ta’minalash;

avtomobil yo‘llari va transport sohasida xalqaro hamkorlik qilish, xalqaro yo‘l va transport tashkilotlari, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari, shuningdek xorijiy kompaniyalar bilan samarali o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish borasida takliflarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

Qo‘mita vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha boshqa davlatlarning avtomobil yo‘llari va transport bo‘yicha vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

maxsus ruxsatnoma bergan holda, shu jumladan xalqaro tashishlarni amalga oshirayotgan yirik o‘lchamli va og‘ir yuk ko‘taradigan avtotransport vositalarining avtomobil yo‘llari bo‘yicha harakati yo‘nalishlarini belgilash;

xalqaro transport yo‘nalishlaridan foydalanishda xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy integrasiyaviy tuzilmalar bilan hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish;

d) zamonaviy transport oqimi sharoitlarida avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarning manfaatlarini hisobga olib, avtomobil yo‘llarini moliyalashtirish, loyihalashtirish, qurish, ta’mirlash va ulardan foydalanish masalalari kompleks hal etilishini ta’minlash hamda buyurtmachi xizmatining samarali faoliyatini tashkil etish sohasida:

avtomobil yo‘llarini, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlariga, shu jumladan investitsiya loyihalari va mukammal ta’mirlash obyektlarini texnik-iqtisodiy asoslashni (texnik-iqtisodiy hisob-kitobni), avtomobil yo‘llarini mukammal ta’mirlash obyektlarining ish hujjatlarini va avtomobil yo‘llarini jihozlash bo‘yicha tanlov hujjatlari ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha buyurtmachi funksiyalarini amalga oshirish;

idoraviy mansub tashkilotlarning muassisi funksiyasini amalga oshirish, ular faoliyati monitoringini olib borish va iqtisodiy tahlil qilish, shuningdek idoraviy mansub tashkilotlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini va mol-mulkdan foydalanilishini tekshirish;

qulay va xavfsiz harakatni ta’minlash uchun avtomobil yo‘llaridan foydalanish, avtomobil yo‘llaridan foydalanishda yo‘l harakati xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish;

yo‘l qurilishining yirik loyihalarini moliyalashtirishga xalqaro moliya institutlarini jalb etish;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning og‘zaki va yozma murojaatlari o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqilishini ta’minlash, ular bo‘yicha

qarorlar qabul qilish va ariza beruvchilarga qonun hujjatlarida belgilangan muddatda javoblar yuborish;

e) avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash sifati ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida:

avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish sohasida sifat nazoratini amalga oshirish;

avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash ustidan texnik kuzatish;

avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlashda qo'llanadigan yo'l-qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalarning sifati ustidan nazorat qilish;

j) ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash sohasida innovasion texnologiyalar va zamonaviy standartlarni joriy etish sohasida:

xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko'chalarining mavjud tarmog'ini ta'mirlash va saqlash bo'yicha mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ishini muvofiqlashtirish;

xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari, shaharlar, shahar posyolkalari, qishloqlar va ovullar ko'chalari tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan shaharlar va tumanlarning bosh rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

z) ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash sohasida innovasion texnologiyalar va zamonaviy standartlarni joriy etish sohasida;

avtomobil yo'llari sohasida texnik jihatdan tartibga solish borasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish, takomillashtirish va o'z vakolatlari doirasida qabul qilish;

avtomobil yo'llari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

"Qo'mita faoliyatiga tegishlilik yuzasidan tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar, shuningdek boshqa hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va kelishish;

avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va olib borish;

avtomobil yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va saqlash sohasida zamonaviy texnologiyalarni va yangi materiallarni joriy etish bo‘yicha tajriba ishlari olib borish;

i) avtomobil yo‘llari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni, shu jumladan chet ellarda o‘quv-amaliyot kurslari va seminarlar tashkil etish sohasida:

tarmoqda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha bazaviy ta’lim dasturlarini kelishish;

yo‘l qurilishini prognozlashtirish, muvofiqlashtirish va amalga oshirishning zamonaviy usullari talablariga muvofiq avtomobil yo‘llari sohasida malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minalash;

o‘quvchilarning olingan nazariy bilimlarini ishlab chiqarish amaliyotida mustahkamlash maqsadida ta’lim muassasalarining idoraviy mansub tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligini ta’minalash;

avtomobil yo‘llari sohasida kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlashni, shu jumladan xorijiy ta’lim muassasalarida tajriba orttirishini ta’minalash.

3. Qo‘mita o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bevosita, shuningdek, hududiy organlar va idoraviy mansub tashkilotlar orqali bajaradi

O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga – avtomobil yo‘llari sohasida yagona texnik siyosatni olib borish, avtomobil yo‘llari tarmoqlarini rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollarini belgilash, avtomobil yo‘llarining xalqaro tranzit yo‘laklarini shakllantirish hamda boshqa vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari yuklatilgan.

“O‘zbekistondagi jami avtomobil yo‘llar tarmog‘i 209,5 ming kmdan ziyod uzunlikda bo‘lib, undan 42869 kilometri–umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, 141883 kilometr-ichki xo‘jaliklararo, qishloq, shahar va ovullarning avtomobil yo‘llari, 24.745 kilometri esa, - idoraviy inspektorlik yo‘llari tarmog‘i hisoblanadi”⁵.

⁵ <https://uzavtoyul.uz/> Ўзбекистон Республикаси Автомобиль йўллари қўмитасининг расмий сайти

Joriy yil investitsiya dasturiga asosan 2735,8 km.lik umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida hamda "Obod qishloq", "Obod mahalla" va boshqa dasturlarga asosan 10 114,5 km ichki yo'llarda, shahar ko'chalarida qurish, qayta qurish ishlari amalga oshiriladi. 2021-yilning 1-choragi davomida umumfoydalanuvdag'i 335 kilometr avtomobil yo'llarida qurish, qayta qurish, ta'mirlash va saqlash ishlari bajarildi. Mintaqaviy avtomobil yo'llari holatini zarur darajaga keltirish orqali yo'l-transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, ayniqsa, qishloq joylarda qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha ham sezilarli ishlar qilindi. Xususan, 1-chorak maboynida "Obod qishloq", "Obod mahalla" va boshqa dasturlar asosida 3 578,3 kmdan ortiq ichki yo'llar ta'mirlandi.


Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish uchun qo'mita tizimidagi korxonalarining moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash maqsadida joriy yilda 267 ta maxsus texnika xarid qilish rejalashtirilgan.

Shuningdek, "Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda., Jumaladan:

- Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida – A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" avtomobil yo'lining 87 km qismini rekonstruksiya qilish;
- Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida – A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 3 km qismini rekonstruksiya qilish;
- Islom taraqqiyot banki (ITB) ishtirokida "M39 "Toshkent-Termiz" avtomobil yo'lining 1395-1400 km va 1410-1426 km (21 km) qismlarini rekonstruksiya qilish;
- Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida – A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" avtomobil yo'lining 240 km qismini rekonstruksiya qilish;
- Osiyo infratuzilma investitsiyalar banki ishtirokida – A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" avtomobil yo'lining 78 km qismini rekonstruksiya qilish;
- Jahon banki ishtirokida – Toshkent, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari mahalliy avtomobil yo'llarini rivojlantirish;

- Saudiya taraqqiyot jamg‘armasi va Quvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jamg‘armasi ishtirokida – "4R87 "G‘uzor-Chim-Ko‘kdala" avtomobil yo‘lining 35 km qismini rekonstruksiya qilish loyihalaridir"⁶.

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi faoliyatini moliyalashtirish bilan bog‘liq holda asosan, davlat budgeti (Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasi) dan hamda qo‘shimcha tarzda budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan pul mablag‘lari yo‘naltirilgan. Quyidagi rasmda bunga oid ko‘rsatkichlarni ko‘rib o‘tamiz.



1.1-rasm. Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasini moliyalashtirishning davriy o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumot (mlrd. so‘m)⁷

Ushbu rasmdan ko‘rish mumkinki, so‘nggi besh yil davomida Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining asosiy moliyalashtirish manbasi hisoblangan Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armasining daromadlari bir maromda bo‘lмаган. Bunga asosiy sabab, pandemiya bilan bog‘liq holda davlat budgetidan ajaratiladigan mablag‘larning qisqarishi kuzatilgan. Qo‘mita tomonidan mahalliy darajadagi yo‘llarni ta’mirlash hamda mahalliy korxonalarini saqlab turish xarajatlari ushbu davrda mahalliy budgetlar tomonidan qoplanganligi bilan izohlash mumkin.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 9 сентябрдаги “Осиё тараққиёт банки иштирокидаги А-380 “Ғузор-Бухоро-Нукус-Бейнен” автомобиль йўлининг 228-315 км (87 км) қисмини реконструкция қилиш лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2583 сонли қарори

⁷ Фуқаролар учун бюджет ахборот нашри маълумотлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилди

1.2-§. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining nazariy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida boshlangan hamda hayotga tadbiq etilayotgan izchil islohotlar, amaliy sa’y-harakatlar yangi taraqqiyot marralarini egallash, zamonga mos tarzda rivojlanish, xalqimiz manfaatlarini ta’minlashga qaratilganligi bilan g‘oyat ahamiyatlidir. Jumladan, davlatimiz rahbari ta’kidlab o‘tganidek, davlat moliyasini boshqarishda iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, eng avvalo, iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bog‘liqdir.

Mustaqillik yillarining o‘tgan davri mobaynida davlat budgeti ijrosini isloh qilish orqali ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohani rivojlantirishda sezilarli o‘zgarishlarga erishildi. Jumladan, budget ijrosiga oid tizimli normativ-huquqiy baza yaratildi. Davlat budgetining g‘azna ijrosi joriy etilishi orqali budget va budgetdan tashqari mablag‘larning maqsadli va manzilli sarflanishi ta’minlandi.

Moliya tizimining samarali faoliyat yuritishida davlat budgeti muhim hisoblanib, unga mamlakatimizning etuk iqtisodchi, nazariyotchi olimlari iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sh.Sh.Shodmonov hamda iqtisodiyot fanlari doktori, professor T.Jo‘raev tomonidan shunday ta’rif berilgan: Davlat pul mablag‘larning asosiy markazlashgan fondi bo‘lmish davlat budgeti moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. Davlat budgeti – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash mablag‘larining yillik rejasidir - deb izoh berishgan.

Ushbu ta’riflar juda o‘rinli va mazmun jihatdan batafsil bayon qilingan. Shu bilan birga ushbu ta’rifga qo‘srimcha tarzda davlat budgetining maqsadli tarzda shakllantirilishi masalasi ham bayon qilinganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xorijiy davlat olimlaridan esa, professor Anvar Shax Davlat budgeti bu – hukumat tomonidan belgilangan vaqt davomida daromadlar va xarajatlarni uzluksiz hisobda qayd etib borishdir. Bu belgilangan davr mobaynida davlat tegishli faoliyat turlarini qachon va qanday qilib moliyalashtirish maqsadini anglatadi -deb ta’rif bergan.

Ushbu xorijlik olim tomonidan berilgan ta’rifda davlat budgetining rejalashtirilishi, tasdiqlanishi va ijrosi jarayoni to‘g‘risida jihatlarni ham e’tiborga olinsa, o‘rinli bo‘lar edi. Chunki, davlat budgeti vakolatli organlar tomonidan ishlab chiqiladi va qonunchilik organi hamda davlat raxbari tomonidan reja shaklida tasdiqlanadi. Tasdiqlangan budget keyin ijrosi amalga oshiriladi. Ushbu ijo jarayonida mutasaddi idoralar budgetning ijrosi yuzasidan hisobdor sanaladi hamda qonunchilik organi hamda davlat raxbari oldida davriy hisob berib boradi.

Shunday ekan, jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, ularni miqdor jihatdan ifodalash va sifat jihatdan tavsiflash, nazorat va tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotlar olishda asosan hisob tizimiga murojaat qilinadi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, davlat budgetidan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlarining hisob yuritish tizimi va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibini xalqaro standartlar talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, rivojlantirish va takomillashtirib borish davlatimiz budget tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir.

Bu borada mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan iqtisodiyot fanlari nomzodi Sh.V.G‘aniev o‘zining ilmiy ishida Ta’lim tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish talablar darajasida emas. Respublikamizda tegishli tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan va amal qilayotgan buxgalteriya hisobi va auditning milliy standartlarini ta’lim tizimiga joriy etish ishlari sust olib borilmoqda-deb ta’kidlagan.

Ammo, ushbu ilmiy ish bajarilganligiga o‘n yil muddat bo‘lganligini hisobga olsak, bu muddat ichida budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkiliy-uslubiy ta’mnoti tubdan isloh qilinib, normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘plab o‘zgarishlar yuz berdi.

Yuqoridaagi ta’riflardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, davlat sektorida tashkiliy-huquqiy maqomiga ko‘ra subyektlar ikki turga ajaratilayotgandek, ya’ni “Budget tashkilotlari” hamda “Muassasalar”. Quyida ushbu tushunchalarni qonunchilikda keltirilgan manbalar bilan ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga harakat qilamiz. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasining 26 dekabr 2013 yilda qabul qilingan

Budget Kodeksining 4-moddasida “Budget tashkilotlari” tushunchasiga quyidagicha: “Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot budget tashkilotidir. Budget tashkilotlarini moliyalashtirish shartlari va ularning budget hisobini yuritish tartibi budget to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi” – deb ta’rif keltirilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 21 dekabr 1995 yil (*yangi tahrir. 19.04.2018 y.*)da qabul qilingan Fuqarolik Kodeksining 76 moddasida “Muassasalar” tushunchasiga quyidagicha: “Boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta’minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi.

Muassasaning o‘ziga biriktirib qo‘yilgan va o‘zi sotib olgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlari ushbu Kodeksning 178 va 180 moddalariga muvofiq belgilanadi.

Muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi pul mablag‘lari bilan javob beradi. Bu mablag‘lar etarli bo‘lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladi.

Ayrim turdag‘i davlat muassasalari va boshqa muassasalar huquqiy mavqeining xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi”⁸- deb ta’rif keltirib o‘tilgan.

Budget tashkiloti tushunchasiga mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlarning iqtisodchi olimlari o‘zlarining ilmiy asarlari va ilmiy nazariyalarida ta’riflar berib o‘tishgan. Jumladan, mamlakatimiz olimlaridan iqtisodiyot fanlari nomzodi M.Ostonaqulov hamda iqtisodiyot fanlari doktori, professor S.U.Mehmonovlar o‘zlarining asarlarida budget tashkiloti tushunchasiga bir hil mazmunda ta’rif berishgan.

Iqtisodiyot fanlari nomzodi M.Ostonaqulovning ilmiy talqiniga ko‘ra Budget tashkiloti – bu zimmasiga yuklatilagan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat budgetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan

⁸ Ўзбекистон Республикасининг 21 декабрь 1995 йил (янги таҳрир. 19.04.2018 й.)да қабул қилинган Фуқаролик Кодексининг 76 моддаси.

va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan davlat tashkilotidir. O‘z navbatida iqtisodiyot fanlari doktori, professor S.U.Mehmonov ham quyidagicha ta’rif keltirib o‘tgan “Budget tashkiloti – zimmasiga yuklatilagan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun davlat budgetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti”⁹.

Ushbu olimning qarashlari amaldagi budget qonunchiligi bilan juda yaqin bo‘lib, budget tashkilotlari o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifani ado etishlari bilan bog‘liq xarajatlari davlat budgeti hisobidan moliyalashtirilishini nazarda tutmoqda. Bizningcha, ushbu ta’rifda budget mablag‘lar oluvchi moliyaviy mustaqillik berilgan muassasalar masalasi ham e’tiborga oliganda juda o‘rinli bo‘lar edi.

Xorijiy mamlakat, jumladan Rossiya Federasiyasidan iqtisodchi olim M.A.Ryabova o‘z asarlarida Budget tashkilotlari – federasiyaning davlat hokimiyyati organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan tashkil etiladi va boshqaruv, ijtimoiy-madaniy, ilmiy-texnikaviy va boshqa notijorat xarakterdagি funksiyalarni bajaradi. Daromadlar va xarajatlar smetalari asosida davlat budgeti, budgetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalari yoki maqsadli mablag‘lar hisobidan faoliyat yuritadigan tashkilotlar (maktablar, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash muassasalari, madaniyat va boshqalar) - deb o‘z qarashlarini ilmiy talqin qilgan.

Ushbu qarashda budget tashkilotlarining tashkil etilish maqsadlariga asosiy urg‘u qaratilgan hamda shu asosda moliyalashtirish manbasi ham belgilanishi nazarda tutilgan. Bizningcha, ushbu qarashlarda budget tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag‘larning shakllantirish amaliyoti nazardan chetda qoldirilgan.

Yuqorida normativ hujjatlarda hamda mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning iqtisodchi olimlari o‘zlarining ilmiy asarlari va ilmiy nazariyalarida keltirilgan ta’riflardan kelib chiqib, xulosa qilgan holda o‘zimizning ilmiy qarashimiz bo‘yicha aytishimiz mumkinki, budget tashkilot (muassasa)lari davlat funksiyalarini ijro etuvchi,

⁹ Мехмонов С.У ва бошк. “Бюджет ташкилотларида бухгалтерия хисоби”. Дарслик.-Тошкент, “Sano-standart”, 2013, 5-бет. (456 бет)

davlat tomonidan uzluksiz nazorat qilinadigan hamda daromadlar va xarajatlar smetalari asosida davlat budgetidan moliyalashtiriladigan institutsional birliklardir.

Davlat sektori tuzilmasi ko‘p tarmoqli bo‘lib, unda budget tashkilotlari alohida o‘ringa ega. Budget tashkilotlari asosan davlatning aniq bir funksiyasini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda budget mablag‘lari hisobiga saqlab turiladigan (sog‘liqni saqlash, ta’lim, huquqni muhofaza qiluvchi hamda qoidabuzarlik va jinoyatlarga qarshi kurashuvchi organlar, mudofaa sohasi va uning tizimidagi tashkilotlar va boshqa ko‘plab ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan) institutsional birliklardir.

Budget tashkilotlari davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar, o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan hamda faoliyat turiga mos ish va xizmatlar ko‘rsatishdan, xomiylid, vaqtinchalik bo‘sh bino va inshootlarni ijarasi, hamda boshqa qonunchilik bilan taqilanganmagan budgetdan tashqari mablag‘lar tushumlari hisobiga faoliyati mablag‘ bilan ta’milnadi va ular hisobiga belgilangan tartibda xarajatlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, qonunchilikka ko‘ra Davlat budgetidan va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlaridan mablag‘lar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxs budget mablag‘lari oluvchidir. Budget mablag‘larini oluvchi budget tashkiloti maqomiga ega bo‘la olmaydi. Budget mablag‘lari oluvchini Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish shartlari budget to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi – deb ta’kidlangan.

O‘z navbatida aytish mumkinki, tashkilot ixtiyoridagi mablag‘lar, xo‘jalik jarayonlari va ularning ta’siri ostidagi tashkilot mablag‘lari va mablag‘ manbalarining tarkibi, tuzilishi va harakatini o‘z vaqtida kuzatib borish bevosita buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Buxgalteriya hisobi xo‘jalik jarayonlarini uzluksizligini ta’milashda zaruriy axborotlarni to‘plash uchun eng asosiy omillardan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunida Buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operasiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va

umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir. Buxgalteriya hisobi xo'jalik operasiyasini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schyotida bir vaqtida va o'zaro bog'liq holda pulda baholab aks ettirish yo'li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi— deb keltirilgan.


Bevosita tadqiqotimiz predmetiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksida Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi jumlasiga aniq ta'rif keltirilmagan. Ammo, kodeks matnlarida "Budget tashkilotlarida budget hisobi" jumlalaridan foydalanilgan. Shu sababli ham hanuzgacha ushbu tushunchani iqtisodchilar turlicha talqin qilib kelmoqdalar.

Qonun, qonunosti hujjatlarda va mamlakatimiz, shuningdek xorijiy davlatlarning iqtisodchi olimlari tomonidan "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" jumlasiga nisbatan berilgan ta'riflarni o'rganib chiqdik. Mamlakatimiz olimlaridan iqtisodiyot fanlari doktori, professor S.U.Mehmonov "Hozirgi kunda budget tizimi tarkibi bo'lgan budget tashkilotlari hisobini budget hisobi deb yuritilishi buxgalteriya hisobi qonunchilik hujjatlarida ham belgilab berilgan"¹⁰ – deb ta'kidlagan, ammo qaysi jumladan foydalanish maqsadga muvofiqligi borasida aniq bir ilmiy qarashni ilgari surmagan.

Shuningdek, xorijiy davlatlarning iqtisodchi olimlaridan T.G.Sheshukova Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi", "Budget tashkilotlarida budget hisobi jumlalariga nisbatan o'zining ilmiy talqinlarini keltirib o'tgan. Olimning fikricha "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobideb emas, aksincha "Budget tashkilotlarida budget hisobi" deb talqin qilinishini ma'qullagan, hamda buni budget ijrosi jarayonlari bilan bog'liqligi, budget ijrosi jarayonlarida budget tasnifini hisobda qo'llanilishi bilan izohlag Shuningdek, budget hisobi va buxgalteriya hisobi tushunchalarini qo'llanilishi hisobni yuritish xususiyatlarida ma'lum farqlanishlar borligi masalasiga ham e'tibor qaratgan.

¹⁰ Мехмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия хисоби: назария ва амалиёт. //Монография//.Т.:Иқтисодмолия. 2016 йил.18-бет.136 бет

Bundan tashqari budjet ijrosiga oid qonunchilik asoslarini, shuningdek tadqiqot mavzusiga oid mamlakatimiz olimlarining ilmiy asarlarini o‘rganganimizda budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining mazmunini yoritib beradigan aniq va to‘liq mazmunga ega bo‘lgan ta’rif keltirilmaganligi aniqlandi. Shu sababli, ilmiy izlanishlar natijasidagi xulosalardan kelib chiqib, budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining mazmunini yoritib bera oladigan mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi, ya’ni “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi – tashkilotga daromadlar va xarajatlar smetalari doirasida ajratilgan budjet va budgetdan tashqari mablag‘lar hamda ularning tashkil topish manbaalarining harakati va holatini o‘rganish, nazorat qilish, boshqarish maqsadida budjet ijrosiga oid axborotlarni shakllantirish tizimidir.



1.2-rasm. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar¹¹

Budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobida tashkilot ixtiyoridagi mablag‘lar, xo‘jalik jarayonlari, ularning ta’siri ostidagi tashkilot mablag‘lari va mablag‘ manbalarining tarkibi, tuzilishi va harakatiga oid sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar aks ettiriladi hamda tashkilotning smetalari ijrosi natijasi aniqlanadi. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining asosiy talablaridan biri har bir xo‘jalik operasiyalari bo‘yicha

¹¹ Илмий тадқиқотлар натижасида муаллиф томонидан тайёрланган.

hujjatlarni o‘z vaqtida rasmiy lashtirishdir. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining maqsadi bo‘lib, foydalanuvchi (ichki va tashqi)larni to‘liq, aniq va o‘z vaqtida moliyaviy va boshqa buxgalteriya ma’lumotlari bilan ta’minlash hisoblanadi (1.2-rasm).

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

qonunchilik talabalari asosida buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish;

xo‘jalik operasiyalarini qonuniyligini va o‘z vaqtida to‘g‘ri hujjatlashtirish ustidan boshlang‘ich va joriy nazoratni tashkil etish;

tashkilot uchun ajratilgan budget mablag‘laridan va ularni belgilangan maqsadlariga to‘g‘ri va tejab sarflanishi ustidan joriy nazoratni olib borish;

daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni muomalalarini o‘z vaqtida hujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish;

smetalar ijrosini bajarish yuzasidan vujudga keladigan turli korxonalar, muassasalar va boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirish;

tashkilot xodimlarining ish haqlarini va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini, shuningdek, ta’lim muassasa (ilmiy tadqiqot institut) larida talabalar hamda doktorantlarning stipendiyalarini o‘z vaqtida hisoblanishi va tegishli hujjatlarda o‘z vaqtida aks ettirilishini ta’minlash;

tashkilot pul mablag‘lari va moddiy boyliklarining butligi ustidan nazorat olib borish maqsadida xodimlar orasida tashkilotning mol-mulkiga moddiy javobgarlikni tashkil etish va belgilash;

buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarning holati to‘g‘risidagi to‘liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirish;

tashkilot moliyaviy aktivlari, hisob-kitoblari va moddiy boyliklarini inventarizasiyadan o‘tkazish hamda ular natijalarini o‘z vaqtida to‘g‘ri aniqlash va hisobga olish;

moliyaviy hisobotlarni tuzish, tasdiqlash va qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirish;

buxgalteriya hisobi xizmati faoliyatiga taalluqli qonun, nizom, yo‘riqnomalar, uslubiy ko‘rsatmalar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan talablar asosida hisobni yuritish;

buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari, daromadlar va xarajatlar sметалари va ular bilan bog‘liq hisob-kitoblar hamda boshqa hujjatlarni tashkilotda saqlanishini tashkil etish va o‘rnatilgan tartibda arxivga topshirish;

buxgalteriya hisobini tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan hisob siyosatini normativ hujjatlar asosida ishlab chiqish;

buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va boshqalar.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining obyektlari bo‘lib, nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, majburiyatlar, moliyaviy natijalar hamda ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operasiyalari hisoblanadi.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning boshqa tarmoq hisob turlariga nisbatan bir qator o‘ziga xos bo‘lgan alohida xususiyatlari mavjud, avvalo barcha jarayon budget ijrosi jarayonini uzluksizligini ta’minlash maqsadida tashkil qilinadi. Bunda daromadlar va xarajatlar sметалари ijrosi bo‘yicha xo‘jalik muomalalarini ro‘yxatga olish va nazorat qilish, buxgalteriya hisobi schyotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlari va majburiyatlarining holati to‘g‘risidagi to‘la va aniq ma’lumotlarni shakllantirish, samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish hamda moliyaviy, soliq va boshqa hisobotlarni tuzish hisoblanadi.

Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni bilan “Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish maqsadida natijaga yo‘naltirilgan budgetlashtirish amaliyotini joriy qilish vazifasi qo‘yilgan. Bunda, har bir faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, budget tashkilotlarida nafaqat budget mablag‘lari, balki budgetdan tashqari mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish orqali

tashkilotlarning funksional vazifalarini bajarish orqali davlatning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas’uliyatini to‘la ado etish bosh maqsadlardan sanaladi.

Budget tashkilotlari faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ta’lim, sog‘liqlini saqlash, madaniyat, sport, davlat boshqaruv organlari va shu kabi boshqa faoliyatlarni amalga oshirishda oqilona rejalashtirilgan holda uzlusiz mablag‘lar bilan ta’minalash, mablag‘larni belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirish tashkilotlarning faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda budget tashkilotlarining nafaqat, faoliyatlari samaradorligini ta’minalash, balki, mablag‘larning maqsadli sarflanishini tashkil etish ichki nazorat tizimini to‘g‘ri tashkil qilish va amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq sanaladi.

Bu, o‘z navbatida, budget tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilish zaruriyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, budget tashkilotlarida ichki nazorat tizimining nazariy va huquqiy asoslarini o‘rganish, amaldagi holatini tizimli tahlil qilish, mavjud munozarali holatlarni o‘rganish va ularning echimini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish borasida xorijlik hamda mamlakatmiz olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan. Xalqaro amaliyotda budget tashkilotlari davlat sektoriga qarashli bo‘lganligi sababli, ularni boshqarish va nazorat qilishda ichki nazorat tizimining talab darajasida yo‘lga qo‘yilishi tashkilotlar faoliyati samaradorligini ta’minalash hamda mablag‘larning manzilli sarflanishining asosiy sharti sifatida qaraladi.

Jumladan, xorijlik olimlardan Mohamad Azizal bin Abd Aziz, Jamaliah Said, Mahmudul Alamlar tomonidan Malayziya davlat sektori tashkilotlarida ichki nazorat tizimi va uni baholash amaliyoti tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot “24 federal vazirlik qoshidagi 109 departament va agentlik bo‘limlari, shu jumladan Malayziyadagi Bosh vazir departamenti o‘rtasida so‘rovnomalar to‘plami asosida birlamchi ma’lumotlarni to‘planib ichki nazorat amaliyotining o‘n omili haqidagi fikrga asoslanib omillar tahlil tahlil qilingan. Natijada, moliya organlari guruhining ichki nazorat tizimi kuchli, muhandislik, axborot tizimi, ta’lim, tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimidagi ichki nazorat umumiyligi o‘rtacha ko‘rsatkichda baholangan.

Tadqiqot ishida Malayziyadagi davlat sektori ishonchli va samarali sektorga aylanishi uchun ichki nazoratni tashkil qilish va uni to‘g‘ri baholash bo‘yicha takliflar shakllantirilgan. Albatta, ushbu izlanish natijalari juda qimmatli sanalib, xalqaro maydonda ushbu tajridan foydalanish samarali natija beradi, deb hisoblaymiz. Ammo, ichki nazorat tizimini baholash davlatchilik va boshqaruv shaklidan kelib chiqilsa, barcha mamlakatlarda ham qo‘llash imkoniyati nasibatan cheklangan.

Hung Tang Tri va Thien Huu Nguyen tomonidan tashkilotlarda buxgalteriya hisobi axborot tizimi bilan ichki nazorat tizimining o‘zaro bog‘liqligi borasida izlanish olib borishgan. Bunda, ichki nazorat tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish buxgalteriya axborot tizimining to‘g‘ri ishlashiga xizmat qilishi, shuningdek, buxgalteriya axborot tizimining samarali ishlashi ichki nazorat tizimini boshqarishga olib kelishi asoslab berilgan. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarining uzviy bog‘liqligi masalalari yoritilgan.

Mazkur tadqiqot davomida olingen natija va xulosa juda o‘rinlidir. Sababi, har tashkilot moliya-xo‘jalik faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilib borish bevosita buxgalteriya hisobi tizimi va uning boshqa tuzilmalar hamkorlikda ishslash holati bilan uzviy bog‘liq. Ayniqsa, hozirgi axborotlashtirish va raqamlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi tizimini ham raqamlashtirish ichki nazorat tizmini samarali boshqarish imkoniyatini yanada oshiradi.

Vakhtang Nadiradze davlat sektorida ichki moliyaviy nazorat tizimini joriy etish borasida tadqiqot olib borgan. “Davlat sektorida budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanishi uchun ichki moliyaviy nazorat tizimini isloh qilishning zarurligi asoslangan. Davlat sektorida ichki auditning xalqaro me’yoriy hujjatlari va normativ me’yorlari, ichki nazorat tizimini joriy etishda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari amaliyoti ko‘rib chiqilib, ushbu tajribalardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Yevropa Ittifoqi dunyo amaliyotida moliyaviy markaz sifatida buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirishda asosiy namuna sifatida xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, tashkilotlarda moliyaviy nazorat va ichki nazorat tizimini rivojlantirishda Evropa Ittifoqi tajribalaridan foydalanish zarur, deb hisoblaymiz.

Salomi Jasomina Hehanussa buxgalteriya hisobi axborot tizimlarida ichki nazoratning roli haqida izlanish olib borgan: buxgalteriya axborot tizimlaridan foydalanish boshqaruv organi xodimlari nazoratisiz tashkilot muvaffaqiyatli ishlay oladimi yoki yo‘qligi masalasiga aniqlik kiritish uchun ichki nazorat tizimining oltita muhim rolini aniqlagan. Kompyuterga asoslangan buxgalteriya hisobining axborot tizimlariga katta ta’sir ko‘rsatishi kuzatilgan. Ichki nazorat tizimlari tashkilotdagi ortiqcha resurslarning oldini olishi, moliyaviy hisobotlar bilan bog‘liq hisobdorlikni oshirish, tashkilotning faoliyatiga oid axborotlarning ishonchliligi va sifatini oshirishi, boshqaruv qarorlar qabul qilish va firibgarlikning oldini olish uchun osonlashishi asoslangan.

Ushbu olimning qaralashriga to‘liq qo‘shilgan holda budget tashkilotlarida cheklangan moliyaviy resurslardan samarali foydalanishda mamlakatimizda ham budget mablag‘lari taqsimoti bilan bog‘liq bo‘lgan smetalarni tuzish, ijrosini amalga oshirish va ularga oid axborotlarni raqamli texnologiyalarini vositasida shakllantirib borish tashkilotlar faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlashga va o‘z navbatida, budget takshilotlari faoliyatini rivojlan Tirishga xizmat qiladi.

Z.U.Xamidova budget tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish borasidagi izlanishlarida budget tashkilotlarida ichki audit va ichki nazoratni tashkil etilishi hamda nazoratning amalga oshirilishi, ichki audit va ichki nazoratning o‘zaro bog‘liq va farqli jihatlari asoslab berilgan. Ichki audit xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqa davlat organlari bilan hamkorligini ta’minlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar bergen.

Mazkur olma budget tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat borasida mamlakatimizda ilk bor amalga oshirilgan tadqiqot doirasida moliyaviy nazorat va ichki auditning bog‘liqligi hamdu farqli jihatlarini ochib bergen. Bizningcha, ushbu ishlanmada ayni vaqtida amalga oshirilayotgan islohotlar natasi o‘laroq ichki audit borasida qabul qilingan me’yoriy hujjatlarning talablarini ham e’tiborga olish zarur, deb hisoblaymiz.

B.K.Xamdamov va A.A.Ostonokulov tomonidan budget tizimi budgetlarida budget nazoratini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, nazorat obyektlari va ularning tarkibi, nazorat usullari va shakllari, budget nazoratini amalga oshirish bosqichlari, nazorat natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishni tizimlashtirilgan holda ifodalab berishgan.


Ushbu izlanishlarda asosan nazariy masalalar bayon qilingan. Bizningcha, biror bir budget yoki davlat maqsadli jamg‘armasi yoki budget tashkiloti yoki budgetdan mablag‘ oluvchini namuna tarzda obyekt sifatida tanlab olish orqali amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Sh.Qurbonov tomonidan davlat tibbiyat tashkilotlarida budgetdan tashqari mablag‘lar ichki auditini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan. Tadqiqotchi tibbiyat tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha ichki audit tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishga xizmat qiluvchi audit dasturi va rejasi ni taklif etgan.

Mazkur izlanishlarda olimlar tomonidan budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, nazorat va audit masalalari umumiyl holda o‘rganilgan. Ayrim hollarda ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar berilgan. Ammo, avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

1.3-§. Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining uslubiy asoslari

Avtomobil yo‘llari tizimidagi budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish yuzasidan izlanishlarda avvalo, normativ huquqiy hujjatlarni o‘rganish zarur. Bu boradagi normativ huquqiy hujjatlarni shartli ravishda katta ikkita guruhgga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhgga avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi hujjatlarni o‘rganib chiqiladi. Ikkinchchi guruhda esa, avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga oid normativ huquqiy hujjatlar tadqiq etiladi.



1.3-rasm. Avtomobil yo'llari tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tartibga soluvchi hujjatlar¹²


Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab beruvchi hujjatlar. “Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'ljamg'armasi mablag'lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hamda xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, shaharlarning, shahar posyolkalarining, qishloqlarning va ovullarning ko'chalarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag'lari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasini “rivojlantirish va faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi daromadlari tarkibida chet davlatlar avtotransport vositalarining kirganligi va uning hududi orqali tranzit o'tishi uchun yig'im summasining 40 foizi, respublikaga kirib kelayotgan og'ir vaznli va/yoki yirik gabaritli transport vositalarining respublika hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit o'tishi uchun yig'imlar va to'lovlar, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarining ajratilgan mintaqalarida joylashgan yer uchastkalarida va inshootlarida tashqi reklamani joylashtirish huquqi uchun yig'imlardan tushadigan mablag'lar aks etishi belgilangan.

¹² Муаллиф томонидан тузилган

Avtomobil yo'llari tizmida budjet, davlat maqsadli jamg'armasi va budgetdan tashqari mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish, yo'l xo'jaligi sohasida xarjatlarni qisqartirish maqsadida zarur chora-tadbirlar belgilab berildi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va uning tarkibiy tuzilishi maqbullashtirilib, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish, tizimning samarali faoliyat yuritishiga qaratilgan Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, uning hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlarining namunaviy tuzilmalari belgilab berildi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi hamda uning faoliyatini tartibga soluvchi nizom tasdilangan. Ushbu nizom bilan jamg'arma mablag'larini shakllantirish, jamg'arma mablag'larini boshqarish, jamg'arma mablag'larini sarflash tartiblari belgilab berildi. Shuningdek, mazkur qaror bilan Avtomobil yo'llari qo'mitasi va unga idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi. Qo'mita va uning hududiy boshqarmalaridagi hodimlarni rag'batlantirish miqdorlari hamda ularni budjet mablag'lari, avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, budgetdan tashqari jamg'armalar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishi belgilab qo'yildi



1.4-rasm. Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari va xarajat yo'naliishlari¹³

Avtomobil yo'llari qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va javobgarligi, qo'mita rahbariyatining asosiy funksional vazifalari hamda javobgarligi, o'mita faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari

¹³ Муаллиф томонидан тузилган

mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tartiblari belgilab berilgan. Yuqorida keltirib o‘tilgan normativ huquqiy hujjatlar asosida avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarini 1.4-rasm orqali ifodalaymiz.

Ushbu moliyalashtirish manbalari bilan bog‘liq holda avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari smetalari tuziladi hamda davriy moliyalashtirib boriladi. Ushbu jarayonda Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va hamda uning xududiy boshqarmalari mablag‘larni taqsimlaovchi sifatida qaralib, smetalar ijrosi bevosita avtomobil yo‘llari tizimidagi budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi hamda hisobi yuritiladi. Mazkur jarayonda mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishi, ularning hujjatlashtirilishi tizim tashkilotlarida ichki nazorat tizimining to‘g‘ri tashkil etilganligiga bog‘liq hisoblanadi.

Avtomobil yo‘llari tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi qator huquqiy hujjatlar bilan tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Xususan, O‘zbekistan Respublikasining 2014-yil 26-dekabrdagi 360-son “Budjet kodeksi” Qonuniga ko‘ra, budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari tarkibi belgilanadi. Bundan tashqari, tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromalarning shakillanishi va ularning sarflanishi amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi 404-son “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan shu’ba korxonalar, filiallari, vakolatxonalar va boshqa tarkibiy bo‘linmalari buxgalteriya hisobining subyektlari bo‘lsa, asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operasiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi esa, umumiy holda buxgalteriya hisobini, shuningdek budjet jarayonini bir qismini tashkil qilib, foydalanuvchilarni davlat budgetining ijrosi to‘g‘risidagi zaruriy moliyaviy axborotlar bilan ta’minlaydi.

Amaldagi buxgalteriya hisobi bo‘yicha qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi davlat budgetida turadigan tashkilotlarning buxgalteriya hisobi va

hisobotlarini tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, O‘zbekiston Respublikasining vazirlik va idoralari zarur hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda, o‘z tizimidagi tashkilotlarda faoliyat hususiyatlaridan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi va hisobotlarining umumiy qoidalarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida belgilangan tartibda me’yoriy hujjatlar chiqarishlari mumkin.

“Budget tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minalash manbalarini faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan, budget tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budget tashkilotlariga homiylik (beg‘araz) yordami berilishidan qo‘sishimcha daromadlar olish hisobiga kengaytirish tartibi belgilangan.


Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari Budget va budgetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi nizomga asosan tuzadi. “Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalari bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasida tushumlar manbaini ko‘rsatgan holda budgetdan tashqari mablag‘lar tushumlarining hajmi va mazkur mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda aniqlanishi, daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag‘lar qoldig‘i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi prognozidan tashkil topishi belgilangan.

“Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomalar hamda O‘zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (2-sonli BHS) «Yagona schyotlar rejasi» ga asosan avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo‘yicha schyotlar, subschyotlar, buxgalteriya dastlabki va yig‘ma hujjatlari hamda hisob registrlari ikki yoqlama yozuvda aks ettirish tartiblari keltirilgan. “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanushi to‘g‘risidagi Nizom”ga ko‘ra avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida hisob obyektlari bilan bog‘liq muomalalar hisobini hujjatlashtirishni tartibga solish tizimlari keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi budget hisobining «Hisob siyosati» nomli 1-son standartiga asosan barcha budget tashkilotlari qatorida avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari ham o‘zining smetalar ijrosini amalga oshirish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yuritishda ichki nazorat tizimini tartibga solish hamda tizimli buxgalteriya axborotlarni shakllantirish orqali samarali boshqaruvni joriy qilish uchun hisob siyosatini shakllantirishi zarur. Hisob siyosati belgilangan prinsiplarga muvofiq budget tashkilotlari tomonidan budget hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo‘llaniladigan aniq uslublar, asoslar, yo‘l qo‘yishlar, qoidalar hamda usullar majmui sifatida bir moliya yili davomida qo‘llaniladi.

Hisob siyosati barcha savollarni qamrab olgan holda, hisob jarayonlari bilan bog‘liqlikda, ya’ni budget tashkilotlari buxgalteriya hisobi tizimining maqsadliligini ta’minlashi zarur. Puxta tuzilgan hisob siyosati bosh hisobchining yuqori malakali ekanligidan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida kelgusida budget tashkilotining xo‘jalik faoliyatiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Hisob siyosati O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, buxgalteriya hisobi subyekti faoliyat sohasiga oid nizomlar va standartlar asosida ishlab chiqiladi. Hisob siyosatini ishlab chiqishda uning tashkiliy, texnik va uslubiy jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi (1.5-rasm).



1.5-rasm. Hisob siyosatining tarkibiy jihatlari¹⁴

Buxgalteriya hisobi subyekti rahbari farmoyishiga asosan hisob siyosati hisobot yili oxirida ishlab chiqiladi va kelgusi moliya yili uchun tasdiqlanadi. Ushbu farmoyishga ko‘ra bir vaqtning o‘zida quyidagilar ham tasdiqlanadi:

¹⁴ Муаллиф томонидан тайёрланди

buxgalteriya xodimlarini lavozim yo‘riqnomalari;
 sintetik va analitik schyotlarni aks ettiruvchi buxgalteriya hisobi ishchi schyotlari rejasi;
 hujjatlar aylanish tartibi va grafigi;
 mulkiy qiymatliklar va majburiyatlarni baholash usullari;
 aktivlarni hisobdan chiqarish uslubi;
 inventarizasiya o‘tkazish tartibi va muddatlari;
 hisob axborotlarini qayta ishlash texnologiyasi va boshqa zaruriy hujjatlar.

Hisob siyosatini ishlab chiqish va uning tarkibiy tuzilishi barcha buxgalteriya hisobi subyektlari uchun umumiyligi jihatlarga ega bo‘lishi mumkin. Ammo, avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisob obyektlari, mablag‘lari, mablag‘ manbalari, mablag‘lardan foydalanish tartibi hamda daromad va xarajatlarni hisobda aks ettirish usullari bo‘yicha farqli jihatlari mavjud (1.1-jadval).

1.1-jadval

Buxgalteriya hisobi subyektlarida hisob siyosatini shakllantirish bilan bog‘liq farqli jihatlar¹⁵

Xo‘jalik yurituvchi subyektlari	Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari
HISOB OBYEKLARI	
<ul style="list-style-type: none"> - uzoq muddatli aktivlar; - joriy aktivlar; - majburiyatlar; - xususiy kapital; - moliyaviy natijalar; - xarajatlar; - daromadlar. 	<ul style="list-style-type: none"> - nomoliyaviy aktivlar; - moliyaviy aktivlar; - debtor majburiyatlar; -kreditor majburiyatlar; - moliyaviy natijalar; - xarajatlar; - daromadlar.
DAROMAD VA XARAJATLARNI HISOBDA AKS ETTIRISH USULLARINING QO‘LLANILISHI	
Hisoblash usuli	Hisoblash va kassa usuli

¹⁵ Муаллиф томонидан тайёрланди

MABLAG‘ MANBALARI	
<ul style="list-style-type: none"> - o‘z mablag‘lari; - jalb qilingan mablag‘lar. 	<ul style="list-style-type: none"> - budjet mablag‘lari; - Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari; - Avtomobil yo‘llari qo‘mitasining faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari; - rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari; - boshqa budgetdan tashqari mablag‘lar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish bilan bog‘liq farqli jihatlar mavjud. Shu jihatdan, xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun hisob siyosatini ishlab chiqish bo‘yicha alohida standart ishlab chiqilganligi asosli. Ammo, avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarining hisob obyektlari, mablag‘lari, mablag‘ manbalari, mablag‘lardan foydalanish tartibi hamda daromad va xarajatlarni hisobda aks ettirish usullari bo‘yicha farqli jihatlar mavjud. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida buxgalteriya hisobi bilan bog‘liq alohida hisob siyosati ishlab chiqilishi va buning uchun hisob siyosatiga oid standart qabul qilinishi kerak.

“Hisob siyosati” nomli 1-son BHS standarti avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlariga bo‘lgan ishonchlilik darajasini va ma’lum bir davriylikdagi moliyaviy hisobotlarini, shuningdek, boshqa avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari bilan o‘zaro solishtirish darajasini oshirishga mo‘ljallangan.

Hisob siyosati avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari tomonidan budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida mavjud o‘zaro bir-birini istisno etuvchi bir nechta hisob yuritish usullaridan birini tanlash maqsadida tuziladi. Bu standart avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida hisob siyosatini tanlash va qo‘llash, hisob siyosatiga o‘zgarishlarning hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo‘llanilishi lozim.

Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida moliya xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda buxgalteriya hisobining muhim usuli hisoblangan inventarizasiya alohida

ahamiyat kasb etadi. Inventarizasiya avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari buxgalteriya hisobi axborotlarining ishonchlilagini ta’minalash, moddiy qiymatliklarning but saqlanishi va majburiyatlarning holatini nazorat qilishga xizmat qiladi.

Inventarizasiya avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari amaliyotida doimiy amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan biri bo‘lib, hozirgi zamон talabidan kelib chiqib unga qo‘yilayotgan vazifalar asosida uning o‘ziga xos jihatlari hamda nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Nazariy jihatdan inventarizasiya nazorat qilishning bir elementi hisoblansa, amaliy jihatdan inventarizasiyani o‘tkazish jarayonida nazorat amalga oshiriladi. Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida inventarizasiya rejali tartibda hisob obyektlarining turlari yuzasidan quyidagi davrlar bo‘yicha o‘tkaziladi (1.2-jadval).

1.2-jadval

Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlarida hisob obyektlari bo‘yicha rejali inventarizasiyani o‘tkazishning davriyiliги¹⁶

Hisob obyektlari	Rejali inventarizasiyaning o‘tkazilish davri
Asosiy vositalar	Ikki yilda kamida bir marotaba
Kutubxona fondlari	Besh yilda bir marotaba
Nomoddiy aktivlar	Ikki yilda kamida bir marotaba
Tovar-moddiy zaxiralar	Yilda kamida bir marotaba
Yonilg‘i-moylash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari	Har chorakda bir marotaba
Pul mablag‘lari, pul hujjatlari, boyliklar va qat’iy hisobdagи blanklar	Har oyda bir marotaba

Avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari hisob siyosatida belgilash orqali yillik moliyaviy hisobotlarni tuzishdan oldin rejali tartibda to‘liq inventarizasiya o‘tkazishlari mumkin. Rejadan tashqari esa, mol-mulk ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda, asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar qayta baholanganda, moddiy javobgar shaxslar almashganda, o‘g‘irlik yoki suiste’mol, tabiiy ofatlar, yong‘inlar, falokatlar yoki favqulodda vaziyatlar yuz berganda, avtomobil yo‘llari tizim tashkilotlari faoliyati tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

¹⁶ “Инвентарлашни ташкил этиш ва ўтказиш” номли 19-сон БХМС асосида муаллиф томонидан тайёрланди

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

Davlat sektori tuzilmasi ko‘p tarmoqli bo‘lib, unda budget tashkilotlari alohida o‘ringa ega. Budget tashkilotlari asosan davlatning aniq bir funksiyasini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda budget mablag‘lari hisobiga saqlab turiladigan (sog‘liqni saqlash, ta’lim, huquqni muhofaza qiluvchi hamda qoidabuzarlik va jinoyatlarga qarshi kurashuvchi organlar, mudofaa sohasi va uning tizimidagi tashkilotlar va boshqa ko‘plab ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan) institutsional birliklardir deb qarash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksida “Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” jumlasiga aniq ta’rif keltirilmagan. Ammo, kodeks matnlarida “Budget tashkilotlarida budget hisobi” jumlalaridan foydalanilgan. Shu sababli ham hanuzgacha ushbu tushunchani iqtisodchilar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinmoqda.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining mazmunini yoritib bera oladigan mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi, ya’ni “Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi – tashkilotga daromadlar va xarajatlar smetalari doirasida ajratilgan budget va budgetdan tashqari mablag‘lar hamda ularning tashkil topish manbaalarining harakati va holatini o‘rganish, nazorat qilish, boshqarish maqsadida budget ijrosiga oid axborotlarni shakllantirish tizimidir.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish O‘zbekiston Respublikasining “Budget kodeksi”, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunlari va tegishli yuqori turuvchi organlarning boshqa bir qator normativ hujjatlariga hamda uslubiy ko‘rsatmalariga muvofiq tashkil etiladi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini mamlakatlarda qo‘llash moliyaviy hisobotlarda axborotlarning shaffofligini oshiradi, budgetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integrasiyalashuvini ta’minlaydi. Bu orqali davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda moliyaviy hisobotlarni boshqa mamlakatlar moliyaviy hisobotlari bilan solishtirish imkoniyati kengayadi.